

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 332.135

BBK: 65.7

A - 49

Aliyeva Feruza Mirzaulug‘bek qizi

**XXRNING MINTAQAVIY INTEGRATSIYA
JARAYONLARIDAGI ISHTIROKI
(ASEAN MISOLIDA)**

5A 231001 - “Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik”
(Xitoy va JSHO mamlakatlari)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent **Melibayeva G. A.**

Toshkent– 2015

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning nazariy asoslari.....	12
1.1. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va uning vujudga kelish shart-sharoitlari.....	12
1.2. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish bosqichlari.....	20
1.3. Mintaqaviy integratsion guruhlarining jahon markazlari.....	28
1- bob bo'yicha xulosalar.....	35
II bob. Xitoy va ASEAN mamlakatlarining savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish tendensiyalari.....	38
2.1. XXRning mintaqaviy integratsiya jarayonlardagi ishtirokining sabablari va zamonaviy holati.....	38
2.2. Janubiy-Sharqiy Osiyo Assotsiatsiyasi (ASEAN) integratsion faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.....	46
2.3. ASEAN tashkilotida Xitoyning o'rni va roli, Xitoy-ASEAN erkin savdo hududi asosida savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanish yo'nalishlari.....	54
2 - bob bo'yicha xulosalar.....	64
III bob. Xitoy va ASEAN mamlakatlarining mintaqaviy integratsiya jarayonlaridagi ishtirokining muammo va istiqbollari.....	66
3.1. "Sharqiy Osiyo Birlashmasi" konsepsiyasining shakllanishi.....	66
3.2. Xitoy va O'zbekistonning SHHT doirasida iqtisodiy hamkorlik aloqalarining rivojlanishi.....	74
3.3. O'zbekistonning mintaqaviy integratsiya jarayonlaridagi ishtirokining o'ziga xos jihatlari.....	82
3 - bob bo'yicha xulosa.....	99
Xulosa.....	101
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	105

KIRISH

Magistrlik dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Zamonaviy sharoitlarda dunyoning biror bir mamlakati boshqa davlatalar bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarini olib bormasdan turib samarali rivojlana olmaydi. Jahon xo‘jaligini tobora globallashtirib borishi jarayonlarining negizini mamlakatlar iqtisodiyotining o‘zaro integratsiyasi ta’minlamoqda. Mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy aloqalari singari iqtisodiy integratsiyalashuvi ham dastlab mintaqa miqyosida shakllantirilishi tabiiy hol. Mintaqaviy bozorlarning integratsiyalashuvi va uning ko‘lami, unda ishtirok etayotgan mamlakatlarning barqaror rivojlanishi uchun alohida o‘rin tutadi. Mintaqaviy integratsiya zamonaviy xalqaro munosabatlar rivojlanishining muhim xususiyati. Dunyoda amaliy jihatdan bitta yoki bir nechta mintaqaviy integratsiya guruhlarining a‘zosi bo‘lmagan davlat qolmadi. Hozirgi vaqtda jahon savdosining yarmidan ko‘pi savdo birlashmalarida tashkil etilmoqda, deyarli har bir mamlakat bir yoki bir nechta mintaqaviy integratsiya bo‘yicha kelishuvlar a‘zosi hisoblanadi. Ushbu jarayonlarni bilish va mohiyatini tushinib yetish, mustaqil O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishini jadallashtirish va xalqaro iqtisodiy aloqalarini kengaytirishning samarali yo‘nalishlarini belgilashda amaliy ahamiyatga egadir.

Mamlakatning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvi darajasi tashqi iqtisodiy aloqalarning milliy iqtisodiy ko‘rsatkichlar nisbatiga ko‘ra aniqlanadi. Bunda yalpi ichki mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi, yalpi investitsiyalar va boshqa ko‘rsatkichlarga nisbatan tashqi bozorning ulushi taqqoslanadi. Chunki tashqi bozor mamlakatdagi ishlab chiqarish va iste’molni faollashtirib milliy iqtisodiyotning rivojiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois O‘zbekiston ham jahon hamjamiyati bilan iqtisodiy aloqalarni o‘rnatishga va kengaytirishga katta ahamiyat berib kelmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov Mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasida quyidagilarni ta’kidlab o‘tdilar: “Mamlakatimiz yalpi

ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan tayyor tovarlar tashkil etdi. Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014-yilda 9,4 foiz o‘tdi. Inflatsiya darajasi yil yakunlari bo‘yicha 6,1 foizni tashkil etdi. Bu prognoz ko‘rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada pastdir. O‘tgan yili soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga, daromad solig‘i stavkasi esa 9 foizdan 8 foizga kamaytirilgan bo‘lsa-da, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profitsit bilan bajarildi. Tashqi savdo balansidagi ijobiy saldo 180 million dollarni tashkil qildi, mamlakatimizning oltin-valyuta zaxiralari 1 milliard 600 million dollarga ko‘paydi. 2014-yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o‘tdi va AQSh dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo‘yilmalarning 21,2 foizdan ortig‘i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to‘rtidan uch qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir.”¹

Shu bilan bir qatorda Prezidentimiz I.A. Karimov quyidagilarni ta’kidlab o‘tganlar: «Barchamiz bir haqiqatni anglab yetishimiz lozim — O‘zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois global moliyaviy inqiroz va birinchi navbatda uning oqibatlari iqtisodiyotimizning rivojlanishi va samaradorlik holatlariga ta’sir etayotganidan ko‘z yumib bo‘lmaydi»². Shunga ko‘ra, biz mamlakatimizning integratsiya jarayonlarida ishtirok etishida, jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarining ta’sirini har tomonlama hisobga olishimiz, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta’siri nuqtai-nazaridan shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimiz taqozo etiladi.

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzası.- T.: O‘zbekiston. 2015. – 3 b.

² Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari – T.: O‘zbekiston – 2009.

Bugungi kunda jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashmay turib, jahonning hech bir mamlakati mukammal rivojlana olmaydi. Jahon xo'jaligining tarkibiy yig'indisi bo'lgan milliy iqtisodiyotlar to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish darajasi ortib bormoqda. Jahon iqtisodiyotida milliy xo'jaliklarning baynalminallashuvi ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojining zaruriy tomonlaridan biri bo'lib, u barcha mamlakatlarni, ular qaysi siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy tizimga mansubligidan qat'iy nazar qamrab oladi. Jahon iqtisodiyotining baynalminallashuvini sifat jihatdan yangi holati (ko'rinishi) - iqtisodiy integratsiyadir. Mamlakatlar o'zlarining turli xil manfaatlaridan kelib chiqqan holda birlashadilar. Ayni vaqtda bu manfaatlarning amaldagi ijrosi uchun turli integratsion birlashmalar tuziladi.

Integratsion birlashuv a'zolari bo'lmish mamlakatlar o'rtasida kapital va ishlab chiqarishning markazlashuvi va jamlashuvi jarayoni yanada tezroq kechadi. Bu esa ushbu mamlakatlar integratsion guruhlariga chegarasida yagona iqtisodiy siyosatning vujudga kelishini obyektiv tarzda talab qiladi. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyalar birlashayotgan davlatlarni ishlab chiqarish jarayonlarining qayta qo'shilishiga, o'zaro ta'sirlashuvi va aralashuvini taqazo etadi. Mamlakatlarda iqtisodiy integratsiyalashuv jarayoning yuzaga chiqishi uchun milliy ishlab chiqarish takomillashgan va mehnat taqsimoti chuqurlashib zamonaviy texnologiya asosida iqtisodiy faoliyat yo'lga qo'yilgan bo'lishi lozim. Demak, mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoit yaratilganda iqtisodiy integratsiya voqelikka aylanishi mumkin.

Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya – bu milliy xo'jaliklar (davlatlar) o'rtasida ko'p tomonlama o'zaro barqaror aloqalarning rivojlanishi va mehnat taqsimoti negizida yuzaga kelgan mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan birlashuvi bo'lib, ishlab chiqarish tarmoqlarining turli darajada va turli ko'rinishdagi o'zaro aloqadorligini ifoda etadi.

Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek: «XXI asr shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asr bo'ladi. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozasi deb emas,

balki ayrim mintaqalar ko‘lamida ham, shuningdek, umuman – butun sayyoramiz ko‘lamida ham sobitqadamlik barqarorlikning qudratli omili deb hisoblamoq zarur».³ Shuning uchun ham o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohatlarning barchasi O‘zbekistonni jahon xo‘jaligi tizimiga teng huquqli kirishiga va barcha mamlakatlar bilan teng huquqli hamkorligini ta‘minlashga qaratilgan.

Iqtisodiy integratsiya bir tomondan, yangi texnologiyalardan xorijiy sarmoyalardan foydalanish orqali milliy iqtisodiyotni tezda o‘stirishga ko‘maklashsa, boshqa tomondan, O‘zbekistonning boy resurslari va ishlab chiqarish imkoniyatlarining jahon xo‘jaligiga qo‘shilishi, uning umumjahon iqtisodiy imkoniyatlarini kuchaytiradi. Integratsiya – O‘zbekiston Respublikasining jahon xo‘jaligi tizimiga kirib borishini tezlashtiradi. Shuning uchun ham O‘zbekiston iqtisodiyotida mintaqaviy iqtisodiy integratsion jarayonlarning borishi muhim o‘rin tutmoqda.

Mamlakatning mintaqaviy iqtisodiy integratsiyalashuvi jarayoniga ta‘sir etuvchi omillar qatoriga milliy xo‘jaliklarning chuqur integratsiyalashuviga obyektiv asoslardan biri mamlakatlarning geografik yaqinligi bo‘lib, u iqtisodiy aloqlarning rivojlanishiga tayanch bo‘ladi. Davlatlarning geografik yaqinligi transport va aloqa xarajatlarini tejashga, rivojlanish darajasi katta farq qilmasligi, bozorda faoliyat olib borishda va raqobat jarayonida ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning mustahkamlanishi uchun tashkiliy tuzilmalar mavjudligi, qo‘shma investitsiya faoliyati, miliy ishlab chiqarishning o‘xshashligi, harbiy-siyosiy yakdillik, tuzilma darajasida doimiy ishlaydigan organlarining mavjudligi muhim hisoblanadi. Shuningdek, milliy qadriyatlar va tarixiy taraqqiyotning o‘xshashligi, iqtisodiy aloqalar jarayonining ijtimoiy jihatdan mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Jahon tajribasini o‘rganish shundan dalolat beradiki, integratsiya davlatlarning jahon xo‘jaligiga qo‘shilishini rag‘batlantirish uchun samarali, tub tashqi iqtisodiy siyosat ekanligini, barqaror iqtisodiy o‘sishni, kapital jamg‘arishni, iqtisodiyotda

³ Karimov I. A. “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. T.:1997 y, 298 b

ilg'or texnologik va tarkibiy siljishlar yuz berishini, ishlab chiqarish, investitsiyalarni boshqarish va ularning sifatining oshishini ta'minlashidan dalolat beradi. Iqtisodiy rivojlanishning jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, har bir mamlakatning rivojlanish darajasi olib borilayotgan strategiyaga va jahon xo'jaligiga integratsiyalashuv darajasiga, ko'lami va nufuziga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan ham, mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning milliy davlatlar iqtisodiy rivojidagi ahamiyati beqiyosdir. Mamlakatning integratsiya jarayonlariga imkon qadar tezroq kirishishi, davlat tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun yaratiladigan ma'lum iqtisodiy nafni ifodalashi tabiiydir.

Tadqiqot ishining obyekti va predmeti. mintaqaviy integratsiya jarayonlari ishimizning obyektidir. XXRning minatqaviy integratsiya jarayonlardagi ishtiroki esa tadqiqotimizning predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari. Xitoy Xalq Respulikasining mintaqaviy integratsiya jarayonlaridagi ishtirokini o'rganish magistrlik dissertatsiyamizning asosiy maqsadidir. Maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyalarning mohiyati va uning vujudga kelish shart-sharoitlarini o'rganish;
- mintaqaviy iqtisodiy integratsiyalarning rivojlanish bosqichlari aniqlash;
- mintaqaviy iqtisodiy integratsiyalarning jahon markazlari asosiy ko'rinishlari haqida ma'lumot to'plash;
- XXRning mintaqaviy integratsiya jarayonlaridagi ishtirokinining zamonaviy holatini o'rganib chiqish;
- Janubiy-Sharqiy Osiyo Assotsiatsiyasi (ASEAN) integratsion faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish;
- ASEAN tashkilotida Xitoyning o'rni va roli, Xitoy-ASEAN erkin savdo hududi asosida savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish yo'nalishlari o'rganish;
- "Sharqiy Osiyo Birlashmasi" konsepsiyasining shakllanishi yoritib berish.
- Xitoy va O'zbekistonning ShHT doirasidagi iqtisodiy hamkorlik aloqalarining rivojlanishini tahlil etish.

- O‘zbekistonning mintaqaviy integratsiya jarayonlaridagi o‘ziga xos jihatlari aniqlash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

Magistrlik darajasida XXRning mintaqaviy integratsiya jarayonlaridagi ishtirokining (ASEAN misolida) kuzatuv va tahlili ilk marotaba amalga oshirildi. Shu bilan birga XXRning ASEAN mamlakatlari bilan Sharqiy Osiyo birlashmasi doirasida savdo-iqtisodiy aloqalarining istiqboldagi tendensiyalari tahlil etildi va uning amaldagi natijasi orqali XXR va O‘zbekiston iqtisodiy hamkorlik yo‘nalishlarining istiqbollari o‘rganildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari va rivojlanish bosqichlari, unda ishtirok etayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga bo‘lgan ijobiy, samarali ta’siri ishimizning asosiy masalalari hisoblanadi. Mintaqaviy integratsiya jarayonlarida ishtirok etish orqali faol tashqi iqtisodiy faoliyat olib boriladi va buning natijasida mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sinh ta’minlanadi. Tadqiqotda shu o‘rinda so‘z “Sharqiy Osiyo Birlashmasini” tashkil etish bo‘yicha ketmoqda.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi Tadqiqot ishining mavzusi xalqaro integratsiya borasida chuqur tadqiqot olib borgan va nazariy jihatdan takomillashtirishda katta hissa qo‘shgan olim Balassa B.⁴ hamda Буторина О.В.⁵, Nazarova G.G’., Xalilov X.X., Xanova I.M., Azimov A.E., Nazarova R.R.⁶, Махмудов Э.Р.⁷, Severino, Rodolfo C.⁸, Дынкин А.А., Шмелев Н.П.⁹, Sodiqov Z.R.¹⁰, Бернард Х., Морис Ш., Юничи Г.¹¹, Ignatius I., Krishnamurti I.¹².

⁴ Balassa B. “The Theory of Economic Integration”. London Allen & Unwin – 1961/2012. 450p.

⁵ Буторина О.В. Региональная интеграция: основные понятия // Европейская интеграция: учебник / под ред. О.В. Буториной. – М.: Издательский Дом «Деловая литература», 2011. – 232с.;

⁶ Nazarova G.G’., Xalilov X.X., Xanova I.M., Azimov A.E., Nazarova R.R. “Xalqaro iqtisodiy integratsiya”. T.: TDIU, 2009. – 268b;

⁷ Махмудов Э.Р. Мировая экономика: современные экономические системы. Ташкент – 2004; -264с.

⁸ Severino, Rodolfo C. Southeast Asia in search of an ASEAN community. – Institute of Southeast Asian Studies, Singapore, – 2006. – 450p;

⁹ Дынкин А.А., Шмелев Н.П. «Мировая экономика и международные экономические отношения». – М.: Магистр: ИНФРА-М, 2013 -654с;

¹⁰ Sodiqov Z.R. Milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga integratsiyalashuv tendensiyalari. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot – matbaa birlashmasi, - 2011.;

¹¹ Бернард Х., Морис Ш., Юничи Г. Выгоды региональной интеграции. – М.,– 2000 -208с.

¹² Ignatius I., Krishnamurti I. The Political-Economy of ASEAN-China FTA. University of Pelita Harapan, Karawaci, Indonesia . –2014.-;30p.

Salidjanova N., Iacob K. Klanderman J.¹³, Melibayeva G.A., Gaziyeu F.Sh.¹⁴, Sadibekova B.D.¹⁵, Сергун И.П.¹⁶, Васильев Л.Е.¹⁷ va boshqa olimlar tomonidan o'rganib chiqilgan va ularning ilmiy ishlaridan amagistrlik dissertatsiyamizda alohida foydalanildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaningning tavsifi Tadqiqotni olib boorish jarayonida empirik, kuzatish, eksperiment, taqqoslash, tavsiflash, analiz, sintez va ekstropolyatsiya metodlaridan keng foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati Mutaxassisliklar, maxsus kurslar bo'yicha XXRning mintaqaviy integratsiya jarayonlaridagi ishtiroki, xususan ASEAN mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalari va uning istiqbollari Xitoy iqtisodiyoti, Xitoyning tashqi iqtisodiy siyosatining o'ziga xos xususiyatlari fanlari doirasida o'qitilishi va mazkur fan sohalarida maxsus adabiyotlar, metodologik qo'llanmalar yaratish uchun material bo'lib xizmat qiladi. XXRning mintaqaviy integratsiya jarayonlardagi ishtirokini ASEAN mamalakatlarida misolida o'rganish Xitoy iqtisodiyotini yanada chuqur o'rganish va o'rganilgan bilim va ko'nikmalar yurtimiz ravnaqi uchun xizmat qilishiga yordam beradi.

Ish tuzilmasining tavsifi. Tadqiqot ishi kirish, asosiy qismda 3 ta bob, 9 ta bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Ishning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi, obyekt va predmeti, maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi, asosiy masalalari va farazlari, tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning tavsifi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan.

¹³ Salidjanova N., Iacob K. Klanderman J. China's Economic Ties with ASEAN: A Country-by-Country Analysis. «U.S.-China Economic and Security Review Commission».- 2015.-40p.

¹⁴ Melibayeva G.A., Gaziyeu F.Sh. Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi. – T.: «JIDU» nashriyot – matbaa birlashmasi, – 2011. – 120 b.;

¹⁵ Sadibekova B.D. Osiyo Tinch Okeani mintaqasi mamlakatlarida ijtimoiy iqtisodiy siyosat. – T.: – 2013.

¹⁶ Сергун И.П. Перспективы участия России в интеграционных процессах в Юго-Восточной Азии: на примере опыта создания зоны свободной торговли Китая – АСЕАН. кан.эконом.наук дис. – Саратов – 2013. – 236 с.

¹⁷ Васильев Л.Е. « АСЕАН в начале XXI века. Актуальные проблемы и перспективы. М. : ИД «ФОРУМ», 2010. 368 с.

Tadqiqotning birinchi bobi “Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning nazariy asoslari” deb nomlangan bo‘lib, o‘z ichiga “Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va vujudga kelish shart-sharoitlarini”, “Jahon iqtisodiyotida mintaqaviy iqtisodiy integratsiyalarning rivojlanish bosqichlari” va “Mintaqaviy integratsion guruhlarining jahon markazlari” bo‘limlarni oladi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “Xitoy va ASEAN mamlakatlarining savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish tendensiyalari” deb nomlanib, “XXRning mintaqaviy integratsiya jarayonlardagi ishtirokining zamonaviy holati”, “Janubiy-Sharqiy Osiyo Assotsiatsiyasi (ASEAN) integratsion faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari” va “ASEAN tashkilotida Xitoyning o‘rni va roli, Xitoy-ASEAN erkin savdo hududi asosida savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish yo‘nalishlari” bo‘limlaridan tarkib topgan.

Tadqiqotning uchinchi bobi “Xitoy va ASEAN mintaqaviy integratsiya jarayonlardagi ishtirokining muammo va istiqbollari” deb nom olgan bo‘lib, uning tarkibiga “Sharqiy Osiyo Birlashmasi” konsepsiyasining shakllanishi, “Xitoy va O‘zbekistonning ShHT doirasida iqtisodiy hamkorlik aloqalarining rivojlanishi” va “O‘zbekistonning mintaqaviy integratsiya jarayonlardagi ishtirokining o‘ziga xos jihatlari” bo‘limlari kiritilgan. Har bir bobdan so‘ng alohida xulosalar berilgan va ishning xulosa qismida tadqiqot tahlili umumlashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida 100 tadan ortiq o‘zbek, rus, ingliz va xitoy tilidagi kitoblar hamda internet resurslari ro‘yxati keltirilgan. Ishning umumiy hajmi 111 bet.

Xulosa

Biz mazkur tadqiqot ishimizni yozish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

Jahon iqtisodiyotida mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy aloqadorlikni ta'minlashda bir qator qulayliklarni vujudga keltirib, ular birinchidan, xo'jalik subyektlarini (tovar ishlab chiqaruvchilarni) ko'plab resurslar bilan (inson resurslari, texnik-texnologik va axborot vositalari) ta'minlaydi, ikkinchidan, jahon bozorlariga mos raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi, uchinchidan, integratsiya jarayonlarida qatnashuvchi barcha davlatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan bir-biriga yaqinlashtirib, raqobatdan himoya qiladi, to'rtinchidan, mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlarida ishtirok etuvchi davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy muammolarni hal etish imkoniyatini beradi. Integratsion jarayonlar mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy birlashuvi va milliy davlatlar siyosiy shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

Jahon tajribasini o'rganish shundan dalolat beradiki, integratsiya davlatlarning jahon xo'jaligiga qo'shilishini rag'batlantirish uchun samarali, tub tashqi iqtisodiy siyosat ekanligini, barqaror iqtisodiy o'sishni, kapital jamg'arishni, iqtisodiyotda ilg'or texnologik va tarkibiy siljishlar yuz berishini, ishlab chiqarish, investitsiyalarni boshqarish va ularning sifatining oshishini ta'minlashidan dalolat beradi. Har bir mamlakatning rivojlanish darajasi olib borilayotgan strategiyaga va jahon xo'jaligiga integratsiyalashuv darajasiga, ko'lami va nufuziga bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan ham, mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning milliy davlatlar iqtisodiy rivojidagi ahamiyati beqiyosdir. Mamlakatning integratsiya jarayonlariga imkon qadar tezroq kirishishi, davlat tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun yaratiladigan ma'lum iqtisodiy nafni ifodalashi tabiiydir.

Hozirgi kunda yer kurrasining turli mintaqalarida, turli ko'rinishdagi integratsion uyushmalar faoliyat yuritib kelmoqda. Bu uyushmalarning eng asosiy maqsadlaridan biri, integratsiyaga a'zo davlatlar iqtisodiy rivojlanishini imkon qadar tezlashtirishdan iboratdir.

Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyalar ayni davrda xo‘jalik hayoti baynalminallashuvining oliy darajasidir. Integratsiya a‘zolari bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasida yanada chuqurroq xalqaro mehnat taqsimoti vujudga keladi. Mahsulotlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchlari bilan jadal almashinuv jarayonlari sodir bo‘ladi. Iqtisodiy integratsiya davlatning turli ehtiyojlarini qondirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi va fan-texnika taraqqiyotini jaddalashtirishga, millatlararo yaqinlashuviga, aholining turmush darajasini oshirishga yordam beradi.

Integratsiya jarayonlari jahonning barcha qit‘alarini qamrab olmoqda. Buning natijasida ko‘plab mintaqaviy va submintaqaviy savdo-iqtisodiy tashkilotlar yuzaga kelmoqda. Integratsion guruhlariga a‘zo mamlakatlar iqtisodiyotining o‘zaro hamkorligi ushbu davlatlarning bir-biriga iqtisodiy jihatdan chuqur kirib borishida namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy integratsiyaning to‘rt ko‘rinishini (erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor va iqtisodiy ittifoqlarni) alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Erkin savdo hududi (ESH) preferensial hudud hisoblanib, u o‘z faoliyatida bojxona va miqdoriy cheklashlardan holi savdo tartiblariga qat’iy rioya qiladi. Jahon iqtisodiyotida Bojxona Ittifoqi (BI) huquqiy nuqtai nazardan ikki va undan ortiq davlatlar o‘rtasida o‘zaro uchinchi bir mamlakatga nisbatan yagona, soddalashtirilgan soliq siyosatining o‘tkazilishini aks ettiradi. Integratsion jarayonlar rivojlanishining eng yetuk ko‘rinishlaridan biri bu – umumiy bozor va iqtisodiy ittifoqdir. Jahon iqtisodiyotida ko‘plab iqtisodiy birlashmalarning vujudga kelishi va taraqqiyotidan ma’lumki, integratsiya jarayonlarida aynan ana shu umumiy bozor va iqtisodiy ittifoq eng ko‘p diqqatga sazovordir. Iqtisodiy ittifoq – integratsiyaning oliy formasi bo‘lib, bunda qatnashuvchi mamlakatlar o‘z iqtisodiy siyosatlarini shuningdek, savdoga hamda ishchi kuchi va sarmoya ko‘chib yurishiga nisbatan siyosatni muvofiqlashtiradilar. To‘liq iqtisodiy integratsiya barcha a‘zo mamlakatlar uchun valyuta siyosatini talab qiladi.

Iqtisodiy integratsiya bir tomondan, yangi texnologiyalardan xorijiy sarmoyalardan foydalanish orqali milliy iqtisodiyotni tezda o‘stirishga

ko'maklashsa, boshqa tomondan, O'zbekistonning boy resurslari va ishlab chiqarish imkoniyatlarining jahon xo'jaligiga qo'shilishi, uning umumjahon iqtisodiy imkoniyatlarini kuchaytiradi.

Xitoy va ASEAN o'rtasidagi haamkorlik aloqalari 1970-yilda boshlanib, o'zining rasmiy ifodasini 1990-yillarda topdi. Bugungi kunda hamkorlik darajasi muhim strategik ahamiyat kasb etadi. 2010-yil 1-yanvardan yo'lga qo'yilgan Xitoy va ASEAN erkin savdo hududi har ikki mamlakat o'rtasida savdo aloqalarida boj tariflarini kamaytilishida muhim omil hisoblanadi. Imtiyozli savdo siyosatining olib borilishi, past darajadagi boj to'lovlari hamda hududiy yaqinlik omillari tufayli 2015-yilga borib ASEAN Xitoy savdo hamkorlari orasida 1-o'rinni egallaydi va umumiy savdo hajmi 500mlrd.AQSh dollarga yetdi.

ASEAN va Xitoy hamkorlik aloqalari hozirda tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Buning asosiy omili sifatida biz hududiy yaqinlikni ko'rishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda global darajada raqobatbardosh bo'lgan yagona yuqori darajada rivojlangan iqtisodiy mintaqani yaratish mqasadida integratsiya tamoyilari keng yo'lga qo'yilmoqda va ayni vaqtda yetarli darajada kuchli xalqaro birlashma sifatida tan olinmoqda.

ShHT doirasida hamkorlik Xitoy uchun siyosiy emas, balki iqtisodiy manfaatlar ustun. Shanxay hamkorlik tashkilotida umumiy strategiyaning muhim bo'g'ini – bu iqtisodiy hamkorlikni faollashtirish, tajriba almashish va turli sohalarda aloqalar mustahkamlash, terrorizm va transchegaraviy jinoyat bilan kurashni kuchaytirish, global boshqaruv tizimi, shu jumladan jahon moliya tizimini o'zgartirishga, shuningdek ShHTga a'zo barcha davlatlar og'ishmay rivojlanishiga ko'maklashish. Biror mintaqaviy tashkilotda o'z ishtiroki istiqbollarini mamlakat o'z manfaatlarini terminlarida, shuningdek ushbu birlashmada ishtirok etishga uni undagan sabablardan kelib chiqib belgilaydi. Mazkur manfaatlar va sabablar mos kelishi, shuningdek, kelajakda rivojlanishning umumiy istiqbollarini borasidagi qarashlar har qanday davlatlararo birlashma to'laqonli faoliyat yuritishining zaruriy shartidir. Shunday qilib, har qanday mintaqaviy tashkilot negizida

tashkilotga a'zo barcha davlatlar manfaatlariga mos keluvchi umumiy maqsad yotadi.

O'zbekiston va Xitoy ShHTning muvaffaqiyatli rivojlanishi hamda uning ishida faol qatnashishga alohida e'tibor qaratadi. Bugungi kunda ShHT tizimida hamkorlik mintaqasi, shuningdek, jahonda barqarorlikni va xavfsizlikni ta'minlashda jiddiy omilga aylanib bormoqda. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi tovar aylanmasi 2005-yil yakunlari bo'yicha 485,5 AQSh dollarini tashkil yetdi, ya'ni 2004-yilga nisbatan 32,2 % ga o'sdi. Eksport hajmi 228,3 mln. dollar (125 % ga o'sdi), import hajmi esa 257,2 mln. dollarga (3,2 % ga kamaydi) teng bo'ldi. 2014-yil yanvar-may oyi holatiga ko'ra ikki mamlakat o'rtasida bu ko'rsatkich 2,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Hozirda O'zbekiston Respublikasi tomonidan Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida savdo iqtisodiy, transport kommunikatsiya, investitsiya va boshqa sohalarda hamkorlik faoliyati izchil davom etmoqda.

Iqtisodiy integratsiya – O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jaligi tizimiga kirib borishini tezlashtiradi. Shu sababli xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin tutmoqda. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda O'zbekiston hukumati milliy iqtisodiyotni chuqur qayta ishlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatni amalga oshirmoqda. Bu siyosatning asosiy maqsadi O'zbekistonning jahon xo'jalik tizimiga xom ashyo yetkazib beruvchi sifatida emas, balki ishlab chiqarish va eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi yuqori bo'lgan mamlakat sifatida integratsiyalashuvini ta'minlashdin iborat.

Shunday qilib, O'zbekistonning ilg'or Yevropa mamlakatlari, AQSh, Osiyo-Tinch Okeani mintaqasi davlatlari bilan hamkorlikni rivojlantirishi va mustahkamlashi uning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosat maydonida borgan sari munosib o'rinni egallab bormoqda.

Biror mintaqaviy tashkilotda o'z ishtiroki istiqbollarini mamlakat o'z manfaatlarini negizida, shuningdek ushbu birlashmada ishtirok etishga uni undagan sabablardan kelib chiqib belgilaydi. Mazkur manfaatlar va sabablar mos kelishi,

shuningdek, kelajakda rivojlanishning umumiy istiqbollari borasidagi qarashlar har qanday davlatlararo birlashma to'laqonli faoliyat yuritishining zaruriy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: « O'zbekiston», 2009.
2. O'zbekiston Respublikasi «O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. 1991 yil 14 iyun (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
3. O'zbekiston Respublikasi «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar to'g'risida»gi Qonuni. 1995-yil 22-dekabr (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
4. O'zbekiston Respublikasi «Boj tarifi to'g'risida»gi Qonuni. 1997-yil 29-avgust
5. O'zbekiston Respublikasi «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi Qonuni. 1996-yil 25-aprel
6. O'zbekiston Respublikasi «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonuni. 1998-yil 30-aprel
7. O'zbekiston Respublikasi «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi Qonuni. 1998-yil 30-aprel

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xo'jalik boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 2003-yil 22-dekabrda PF-3366-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008 yil 28 noyabr, PF-4058-son.
10. Постановление Президента Республики Узбекистан от 12.03.2009 г.

№ пп-1072 «Программе мер по реализации важнейших проектов модернизации, техническому и технологическому перевооружению производства на 2009-2014 годы»

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari

11. Karimov I.A. Mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi..- T.: O‘zbekiston. 2015. – 36.

12. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – T., “O‘zbekiston”, 1995. – 269 b

13. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: «O‘zbekiston», 2011.

14. Karimov I.A. “Osiyo taraqqiyot banki boshqaruvchilar kengashi 43-yillik majlisining ochilish marosimidagi nutqi”. “Xalq so‘zi”, 2010 yil 4 may.

15. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. – T.: O‘zbekiston – 2008 y.

16. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari – T.: O‘zbekiston – 2009

17. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari. – T.: O‘zbekiston. 1993. – 54 bet.

18. Karimov I.A. O‘zbekiston – bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. – T.: O‘zbekiston. 1993. – 128 bet.

IV. Ilmiy adabiyotlar

O‘zbek tilida:

19. Mahmudov E.R. Zamonaviy iqtisodiy tizimlar. – T.: – 2011. – 328 b.

20. Melibayeva G.A., Gaziyeu F.Sh. Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi. – T.: «JIDU» nashriyot – matbaa birlashmasi, – 2011. – 120 b.

21. Nazarova G.G., Xaydarov N.X., Akbarov M.B. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – T.: T.: MChJ “RAM-S”, - 2007. – 268 b.

22. Nazarova G.G., Xalilov X.X., Xanova I.M., Azimov A.E., Nazarova R.R. “Xalqaro iqtisodiy integratsiya”. - T.: TDIU, 2009. – 268 b.
23. Sodiqov Z.R. Milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga integratsiyalashuv tendensiyalari. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot – matbaa birlashmasi, 2011. – 91 b.
24. Sadibekova B.D. Osiyo Tinch Okeani mintaqasi mamlakatlarida ijtimoiy iqtisodiy siyosat. – T.: – 2013. – 126 b.
25. Sadibekova B.D. Xitoy iqtisodiyoti. «O‘zDAVMATBUOTLITI» nashriyoti, - 2011. 104 b.
26. Shodiyev R.H., Mahmudov E.R. Jahon Iqtisodiyoti. – T.: – 2006 – 435 b.
27. Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti – 2013. – 226 b.
28. O‘lmasov A. Vahobov Iqtisodiyot nazariyasi, Toshkent – 2006. 134b.
29. Тўхлиев Н., Ҳақбердиев Қ.Қ., Эрмамаров Ш., Холматов Н.Б. Иқтисодий билим асослари. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти – 2003. 98 б

Rus tilida:

30. Буторина О.В. Региональная интеграция: основные понятия// Европейская интеграция:/ под ред О.В. Буторинойю – М. : Издательский Дом «Деловая литература». 2011. – С12-30 .
31. Бернард Х., Морис Ш., Юничи Г. Выгоды региональной интеграции. – М.,– 2000. 208 с.
32. Васильев Л.Е. « АСЕАН в начале XXI века. Актуальные проблемы и преспективы. М. : ИД «ФОРУМ», 2010. 368 с.
33. Гончаров И.В. Оргаиизациоино-экономнческие принцнны формирования механизма развития промышленности стран ЮВА в условиях региональной интеграции. Санкт-Петербург– 2007. – 194с.
34. Далимов Р.Т., Махамбетова З., Худякова Н.К. Международная экономическая интеграсия Ташкент « Университет» - 2004.- 240 с

35. Дынкин А.А., Н.П. Шмелев «Мировая экономика и международные экономические отношения». – М.: Магистр: ИНФРА-М, 2013. 654 с
36. Исполнительный комитет СНГ. Основные интеграционные объединения мира: цели и перспективы развития. – М.: – 2014. С 42.
37. Жуджунь Д., Ковалев М.М., Новик В.В. Феномен экономического развития Китая: Научное издание. Мн.: Издательский центр БГУ, 2008. – 446 с.
38. Колесов В.П., Кулаков М.В. Международная экономика: - М.: ИНФРА-М, 2008. - 474 с.
39. Ломакин В.К. Мировая экономика / В.К. Ломакин. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 671 с.
40. Махмудов Э.Р. Мировая экономика: современные экономические системы Ташкент – 2004, – 251-264с.
41. Михеев В. Восточно Азиатское Сообщество Китайский фактор и выводы для России, Москва – 2004. – 23 с.
42. Мишина С.И. «Стратегия КНР в интеграционных процессах в АТР» , кандидата политических наук, автореферат, Москва-2012. С 26
43. Орман А.А. Китайская Народная Республика – Алмати: Дайх-Пресс, 2006.- С 712.
44. Полякова В.В. Мировая экономика и международный бизнес. М.:КНОРУС, – 2008.-688 с.
45. Рибалкин В.Е. Международные экономические отношения Москва – 2005. 214 с.
46. Селищев А.С., Селищев Н.А. Китайская экономика в XXI веке. – СПб.: Питерб 2004.- 240 с.
47. Сергун И.П. Перспективы участия России в интеграционных процессах в Юго-Восточной Азии: на примере опыта создания зоны свободной торговли Китай – АСЕАН. кан.эконом.наук дис. – Саратов – 2013. 236 с.

48. Синицын А.Ю. АСЕАН в политике РФ и США канд.пол.наук, дисс. Москва – 2014. – 151 с.

49. Уиткомб. В. Современный Китай / Ванесса Лайд Уиткомб, Майкл Бенсон: пер. с англ. И.В. Павловой. – М.: АСТ: Астрел. 2006. – ХВИ, 318 с

50. Усов В.Н. История КНР. В 2 т.Т.И.1949 – 1965 гг: учебник / В.Н. Усов. – М.,: АСТ: Восток – Запад, 2006, - С 812 .

51. Титаренко М.Л. Россия и ее азиатские партнеры в глобализирующемся мире. Стратегическое сотрудничество: проблемы и перспективы /М.Л.Титаренко. — М.: ИД «ФОРУМ», 2012. — 544 с.

52. Шенкер О. Китай: век ХХИ. Развитие Китая, его влияния на мировую экономику и геополитическое равновесие. Днепропетровск – «Баланс Бизнес Букс» - 2005.

53. Энциклопедия Нового Китая, Москва – 1996. – 512 с.

Ingliz tilida:

54. Balassa B. The Theory of Economic Integration. London Allen & Unwin – 1961/2012. 450 p.

55. Carlsen A. China's Economic Growth 1978–2025: What We Know Today About China's Economic Growth Tomorrow. World Development _ Elsevier Ltd. All rights reserved. - 2008, No. 10, pp.

56. Ignatius I., Krishnamurti I. The Political-Economy of ASEAN-China FTA. University of Pelita Harapan, Karawaci, Indonesia . –2014. –30 p.

57. Sergun P. ASEAN+3: Key Positions of Cooperation and Prospects of Development

58. Severino, Rodolfo C. Southeast Asia in search of an ASEAN community. – Institute of Southeast Asian Studies, Singapore, – 2006. – 450 p.

Xitoy tili

59. 中国统计年鉴, 中国统计出版 – 二0一四年. - 九三七页。

V. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

60. Алиджанова О.Т. Жаҳон иқтисодиёти глобаллашуви шароитида интеграцион жараёнлар (ОТИХ мисолида) // Ўзбекистон иқтисодиётининг минтақавий бозорлар ва жаҳон ҳўжалик тизимида интеграциялашувининг долзарб масалалари. Тошкент – 2013. – 39-42 б.

61. Вердиева Н.Е. Экономическое сотрудничество как составная часть ШОС // Global iqtisodiy inqiroz va inqirozdan keyingi davrda milliy iqtisodiyotlar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari. Toshkent – 2010. – 134-138 б.

62. Либман А.М. Устойчивый размер региональных интеграционных проектов и постсоветское пространство // Евразийская экономическая интеграция, – 2008. – №1, – С 10-26.

63. Лицарева Е. Ю. АСЕАН и проект «Восточноазиатское сообщество» // Политология. Религиоведение. Томский государственный университет, – 2014. – № 7, – С 36-43.

64. Мелибаева Г.А., Рахманов Б.Б. Современное состояние торгово-экономических отношений между Республикой Узбекистан и КНР // Международные отношения, – 2013. – № 3, – С 40-44.

65. Петрунина Ж.В. доктор исторических наук, профессор кафедры истории и архивоведения Комсомольского-на-Амуре государственного технического университета «Экономическое взаимодействие Китая и стран АСЕАН в XXI в.» Россия и АТР. – 2012. № 1, – С 2-5.

66. Рахман М.С. Развитие внешнеэкономической деятельности стран – членов интеграционного объединения АСЕАН. – БИЗНЕСИНФОРМ № 3, 2012. С – 87-92

67. Садибекова Б.Д. Ўзбекистон ва Хитой савдо-иқтисодий алоқаларининг ривожланиш тенденциялари // Ўзбекистон иқтисодиётининг минтақавий бозорлар ва жаҳон ҳўжалик тизимида интеграциялашувининг долзарб масалалари. Тошкент – 2013. – 106-110 б.

68. Сергун И.П. Вьетнам в экономической интеграции АФТА и КАФТА // Экономика. 2011. № 2, – С 146-152.

69. Турсунов Б.М. Вопросы финансового регионализма в восточноазиатской экономической интеграции // Ўзбекистон иқтисодий тинчлик минтақавий бозорлар ва жаҳон хўжалик тизимига интеграциялашувининг долзарб масалалари. Тошкент – 2013. 12 –16 б.

70. Фу Минсин. “Отношения добрососедства и открытости”. “Экономическое обозрение” № 5, –2009. – С 3-4. ШОС предоставляет коммерческие возможности малому и среднему бизнесу // Китай. № 12, – 2010. –146.

71. Чзун Хегао Что значит 7,4 % // Китай. № 2, 2015. – С 30-31.

72. Холматов Н.Б. Тенг манфаатли ҳамкорликни ривожлантириш орқали халқаро бозорга интеграциялашиш масалалари// Ўзбекистон иқтисодий тинчлик минтақавий бозорлар ва жаҳон хўжалик тизимига интеграциялашувининг долзарб масалалари. Тошкент – 2013. – 134-138 б.

73. Ю. ШанШан. Мы надеемся на прекрасное будущее // Китай. № 3, 2011. – № 3, – С 11–12.

74. Юсупов Н. “Некоторые факторы экономического роста Китая “Экономическое обозрение” №7, –2012. – С 8-9.

75. Ю. ШанШан. Стабильный рост экономики// Китай. № 3,2014. –С26-28.

76. Koldunova E. The Asia-Pacific Regional Institutions: Stalemate or Transformation? // Moscow State Institute of International Relations, the MFA of Russia (MGIMO – University) – 2013. 10 p.

77. Dilip K. Das China’s Contribution to Recent Convergence and Integration among the Asian Economies // Journal of East Asian Economic Integration Vol. 17, No. 1– 2013. 55-79 p.

VI. Internet saytlari

78. www.gov.uz–O’zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali.

79. www.mfer.uz–O’zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti.

80. www.UzA.Uz–O'zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti.
81. www.review.uz – “Ekonomicheskoe obozrenie” jurnalining rasmiy sayti.
82. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti.
83. http://mfa.uz/rus/pressa_i_media_servis/news/160609
84. <http://www.easttime.ru/analitic/3/8/699.html>
85. <http://psyera.ru/2661/regionalnaya-ekonomicheskaya-integraciya>
86. <http://www.webeconomy.ru/index.php?page=cat&newsid=1250&type=news>
87. <http://uz.chineseembassy.org/rus/dtxw/t197482.htm>
88. <http://www.chinastar.ru/rus/2/2/3/>
89. <http://old.press-ervice.uz/ru/gsection.scm?groupId=4421&contentId=9419>
90. <http://www.topstroy.ru/newstext2867.html>
91. http://www.ng.ru/cis/2007-01-15/6_expanison.html
92. <http://www.preservearticles.com/2012020222419/what-are-the-advantages-of-regional-economic-integration.html>
93. <http://catalog.flatworldknowledge.com/bookhub/3158?e=fwk>
94. <http://allchinacargo.ru/news/sotrudnistvo-s-asean/>
95. <http://www.gmanetwork.com/news/story/304910/economy/business>
96. <http://www.channelnewsasia.com/news/business/asean-plans-free-trade-pact-with-hong-ko>
97. <http://www.asean.org/asean/external-relations/asean-3>
98. <http://www.asean.mgimo.ru/ru/asean-c/11-rus/inf>
99. <http://exlover.narod.ru/Books/Econom/Lomakin/c13.html>
100. http://rusnauka.com/8_NMV_2013/Politologia/10_131
101. <http://www.chinapro.ru/rubrics/1/11020/>
102. <http://rcit.su/inform-vt-cn.html>
103. <http://chinalogist.ru/book/articles/analitika/kto-zhe-s-kitaycem-bratya-navek>
104. <http://www.ereport.ru/articles/weconomy/china2.html>
http://www.ved.gov.ru/rus_export/partners_search/torg_exp/?action=showproduct&id=4685